



MODERNIZING EMPLOYMENT AND VOCATIONAL EDUCATION: SOCIO-PHILOSOPHICAL FOUNDATIONS OF SOCIAL PROGRESS

Oybek G'ulomovich Qo'chqarov

Researcher at Fergana State University

E-mail: oykuchkarov@mail.ru

Fergana, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: employment policy, vocational education, social philosophy, labor market, reforms, vocational voucher, digital platform, poverty reduction, modern education, community-based approach.

Received: 08.08.25

Accepted: 09.08.25

Published: 10.08.25

Abstract: This article explores the processes of ensuring population employment and reforming the vocational education system in Uzbekistan from a socio-philosophical perspective. The author highlights that these reforms are not merely economic, but also deeply cultural, moral, and social. Labor is interpreted as a means of self-realization, social integration, and personal development. Innovative approaches such as the “vocational voucher” system, digital employment platforms, and employer collaboration are analyzed. The findings emphasize the need to strengthen the social dimension of employment policy.

AHOLI BANDLIGI VA KASBIY TA'LIM MODERNIZATSIYASI: JAMIYAT TARAQQIYOTINING IJTIMOIIY-FALSAFIY MEZONLARI

Oybek G'ulomovich Qo'chqarov

Farg'ona davlat universiteti tadqiqotchisi

E-mail: oykuchkarov@mail.ru

Farg'ona, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: bandlik siyosati, kasbiy ta'lim, ijtimoiy falsafa, mehnat bozori, islohotlar, kasb vaucheri, elektron platforma, kambag'allikni kamaytirish, zamonaviy ta'lim, mahallabay yondashuv.

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston Respublikasida aholi bandligini ta'minlash va kasbiy ta'lim tizimini isloh qilish jarayonlari ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Muallif islohotlarning faqat iqtisodiy emas, balki madaniy, axloqiy va ijtimoiy mohiyatini ochib beradi. Mehnat - bu insonning o'zini anglash, jamiyatda o'z o'rnini topish, shaxsiy salohiyatni ro'yobga chiqarish vositasi sifatida talqin etiladi. Maqolada

zamonaviy mehnat bozoriga mos keluvchi ta'lim modellari, "kasb vaucheri", elektron bandlik platformasi kabi innovatsion yondashuvlar tahlil qilinadi. Tahlillar asosida bandlik siyosatining ijtimoiy rolini kuchaytirish yo'llari ko'rsatib beriladi.

МОДЕРНИЗАЦИЯ ЗАНЯТОСТИ И ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ: СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВАНИЯ РАЗВИТИЯ ОБЩЕСТВА

Ойбек Гуломович Кучкаров

Исследователь Ферганского государственного университета

oykuchkarov@mail.ru

Фергана, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: политика занятости, профессиональное образование, социальная философия, рынок труда, реформы, профессиональный ваучер, электронная платформа, сокращение бедности, современное обучение, махаллинный подход.

Аннотация: В статье рассматриваются процессы обеспечения занятости населения и реформирования системы профессионального образования в Узбекистане с социально-философской точки зрения. Автор раскрывает не только экономические, но и культурные, моральные и социальные аспекты реформ. Труд осмысливается как способ самореализации личности, ее интеграции в общество и раскрытия внутреннего потенциала. Анализируются инновационные подходы, такие как модель "профессионального ваучера", электронная платформа занятости и сотрудничество с работодателями. Выводы подчеркивают важность усиления социальной направленности государственной политики занятости.

Kirish

Bugungi O'zbekiston - bu nafaqat yangi binolar, yangilanayotgan yo'llar yoki raqamli texnologiyalarning joriy etilishi, balki, eng avvalo, odamlar o'z hayotiga boshqacha qaray boshlagan, mehnat va salohiyatga yangicha yondashayotgan davr sanaladi. Jamiyatimiz tobora o'zgarayotgan bu manzarada inson omili, uning ruhiy holati, orzu-umidlari, jamiyatdagi o'rni, demakki, uning ishi va mehnatga munosabati alohida ahamiyat kasb etadi.

Aholi bandligini ta'minlash va kasbiy ta'lim tizimini zamon talablari asosida qayta ko'rib chiqish bugun davlat siyosatining markazida turibdi. Biroq bu masalalarni faqat iqtisodiy yoki texnik yondashuvlar doirasida ko'rib chiqish torlik bo'ladi. Chunki mehnat - bu faqat ishlab topilgan pul emas, balki insonning o'zini jamiyat oldida anglashidir. Bu o'z qadrini his qilish,

ijtimoiy munosabatlarga faol aralashish, boshqalarning hayotida iz qoldirish imkonidir, ya'ni, mehnat - bu falsafiy jihatdan o'zlikni ro'yobga chiqarish vositasi hisoblanadi [3].

Odam ish bilan band bo'lsa, uning ko'ngli tinch, ruhi pok bo'ladi, boshqalarga yordam bera oladi, o'z oilasi va jamiyati oldida o'zini mas'ul his qiladi. Aksincha, mehnatdan chetda qolgan, malakasi zamonga mos bo'lmagan inson asta-sekin jamiyatdan uzilib boradi. Shu bois, bugun kasb o'rganish, malaka oshirish, yangi sohalarni egallash - bu nafaqat shaxsiy ehtiyoj, balki ijtimoiy burchga aylanmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan boshlangan islohotlarning tagida aynan shu falsafiy yondashuv yotadi: jamiyatda hech kim e'tibordan chetda qolmasin, har bir inson o'z salohiyatini namoyon qilsin, ishlasin, yaratsin, foydali bo'lsin. Bandlik siyosatining zamonaviy ko'rinishi mana shunday insonparvar tamoyillarga asoslanadi [6].

2025-yilga qadar mamlakatda bandlik sohasini to'liq yangilash va kasbiy ta'limni mehnat bozorining haqiqiy ehtiyojlariga moslashtirish rejalashtirilmoqda. Bu nafaqat boshqaruv tizimining o'zgarishi, shuningdek, kelajakni o'zgartirishga qaratilgan, hozirgi zamon odamining holatini chuqur tushungan strategik qadamlardir biri hisoblanadi.

Maqolada aynan mana shu masalalar, ularning chuqur ildizlari, jamiyatga ta'siri, kelajak avlod uchun qanday ijtimoiy va ma'naviy asos bo'lib xizmat qilishi haqida so'z boradi. Sababi, bandlik va kasb - bu faqat iqtisodiy mezon emas, bu odam hayotining markaziy tayanchi, uning shaxs sifatida yuksalish yo'lidir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Zamonaviy O'zbekiston jamiyatida bandlik va kasbiy ta'lim sohasidagi islohotlar ijtimoiy-falsafiy va gumanistik nuqtai nazardan chuqur o'rganishni talab qilmoqda. Zero, bu islohotlar inson kapitalini rivojlantirish, ijtimoiy tenglikni ta'minlash va mehnat bozorini zamonaviy talablar asosida tashkil etish kabi dolzarb masalalarni o'z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolada O'zbekistonda amalga oshirilayotgan bandlik siyosati va kasbiy ta'lim islohotlari mohiyati, ularning ijtimoiy-falsafiy asoslari hamda xalqaro tajriba bilan bog'liqligi tahlil qilinadi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda bandlik sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar, eng avvalo, inson manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy adolat va barqaror iqtisodiy taraqqiyotga erishishni ko'zda tutadi. 2022-yil 12-apreldagi "Yoshlar bandligini ta'minlash va ularning mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-208-sonli qaror, shuningdek, 2022-yil 21-dekabrdagi "Kasbiy ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-447-sonli qarorlar bu yo'nalishdagi muhim qadamlar bo'ldi [7]. Ushbu qarorlar orqali kasbiy ta'lim tizimini mehnat bozorining real ehtiyojlariga moslashtirish, yoshlarning zamonaviy kasb va ko'nikmalarga ega bo'lishiga erishish maqsad qilingan.

O'zbekistonda bandlik va kasbiy ta'limning uyg'unligi masalasi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan ham dolzarbdir. Mehnat shunchaki iqtisodiy faoliyat emas, balki insonning jamiyatdagi o'rnini anglatadigan ijtimoiy hodisa sifatida e'tirof etiladi hamda bandlik siyosatining gumanistik mazmunini belgilaydi. Xususan, Yangi O'zbekistonda kasb-hunar ta'limining tarkibiy jihatdan takomillashtirilayotgani, kasbiy malaka va sertifikatlash tizimining joriy qilinayotgani ijtimoiy taraqqiyotning muhim sharti bo'lib xizmat qilmoqda.

Bandlik va kasbiy ta'lim o'rtasidagi uyg'unlik muammosi xalqaro miqyosda ham dolzarb bo'lib, YUNESKO, XMT (Xalqaro Mehnat Tashkiloti), Jahon banki, O'zbekiston Respublikasi Bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirligi va boshqa muassasalar bu borada keng qamrovli tadqiqotlar olib bormoqda [10]. Xususan, XMTning "Decent Work Agenda" dasturida mehnat insonning jamiyatdagi o'z o'rnini anglash vositasi sifatida talqin etiladi [3]. Jahon bankining Markaziy Osiyo mehnat bozoriga oid hisobotida esa mehnat migratsiyasi va kasbiy nomutanosiblik masalalari ochib beriladi.

Mahalliy olimlar tomonidan bandlik va kasb-hunar ta'limi masalasi turli jihatdan o'rganilmoqda. Masalan, A. Karimov O'zbekiston mehnat bozori va ta'lim integratsiyasi haqida tizimli fikrlar bildirgan [1], Sh. Rasulov esa bandlikni ijtimoiy tenglik mezoni sifatida tahlil qilgan [2]. R. Egamberdiyev ijtimoiy siyosat va bandlik masalasini falsafiy yondashuv asosida yoritgan [10].

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Mehnat kodeksi, Prezident farmonlari, hukumat qarorlari bandlik siyosatini yuritishda asosiy huquqiy manbalar hisoblanadi [5]. Ularda mehnat huquqlari, ishsizlikni kamaytirish, kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish va fuqarolarni samarali band qilish borasidagi tamoyillar belgilangan. Shu bilan birga, zamonaviy mehnat bozori sharoitida iqtisodiy faol aholini qayta tayyorlash, malakasini oshirish, bandlikni ta'minlashda nodavlat sektor ishtirokini kuchaytirish kabi g'oyalar ilgari surilmoqda [6].

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan bandlik va kasbiy ta'lim islohotlari jamiyat taraqqiyotining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu islohotlar gumanistik yondashuvga asoslangan bo'lib, har bir fuqaroning mehnatga bo'lgan huquqini ta'minlash, jamiyatdagi tenglik va adolat mezonlarini kuchaytirishga qaratilgan. Ijtimoiy-falsafiy tahlil bu boradagi siyosat va dasturlarni chuqur anglash va ularni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Natija va muhokama

So'nggi yillarda O'zbekistonda bandlik va kasbiy ta'lim sohasida boshlangan islohotlar asta-sekin o'z natijasini bera boshladi. Ammo bu natijalarni tushunish uchun raqamlar ortidagi hayotni ko'ra olish kerak: yangi ish topgan odamning quvonchi, o'z kasbini egallab, oilasiga non keltira boshlagan yoshning ishonchi, ko'chada yurgan ishsiz emas, o'z yo'lini topgan fuqaro bo'lish tuyg'usi - ana shu hissiyotlar asl mezon bo'la oladi.

2025-yilning ilk yarmida 3 milliondan ortiq fuqaroning ish bilan ta'minlangani, bu boradagi tizim ishlay boshlaganining muhim ko'rsatkichi bo'lib, biroq bu shunchaki statistik ko'rsatkich emas - bu ortida turli taqdirlar, sinovli hayot yo'llari va ularga berilgan yangi imkoniyatlar turibdi. Zero, bandlik - bu inson hayotiga barqarorlik kirib kelishining birinchi belgisi.

Shu yillarda shakllangan "mahallabay yondashuv" oddiy g'oya emas, balki o'zini oqlagan ijtimoiy mexanizmdir. Banklar, soliq idoralari, mehnat organlari va boshqa muassasalar mahallalarga biriktirilib, aholining har bir qatlamiga individual yondashilmoqda. Bu esa jamiyatni statistik ko'rsatkichlar yig'indisi emas, balki tirik ijtimoiy organizm sifatida ko'rish yondashuvidir.

Muhim yutuqlardan yana biri - kambag'allik darajasi kamaygani. 2025-yil 1-iyul holatiga ko'ra bu ko'rsatkich 6,8 foizgacha tushdi. Aslida, bu raqam emas, balki jamiyatdagi ijtimoiy adolat mezonining tiklanayotganidan darak. Chunki kambag'allik - bu faqat moddiy tanglik emas, bu insonning jamiyatda o'zini kerakli his qilmasligi, umidsizlik, imkoniyatsizlik hissidir. Endi esa davlat odamga oddiy yordam emas, imkoniyat taklif qilmoqda - kasb, bilim, mehnat orqali hayotini o'zgartirish imkoniyati.

Kasbiy ta'lim masalasi ham tubdan qayta ko'rib chiqilmoqda. Bugun bu soha oddiy ta'lim tizimi emas, balki iqtisodiy o'sish va ijtimoiy harakatchanlikning yuragi sifatida qaralayapti. Ish beruvchilar va kasb-hunar maktablari o'rtasidagi aloqa kuchaymoqda, amaliy ko'nikmalarni berishga urg'u berilmoqda. O'qitish "qog'ozda bilim" emas, balki "ish joyida malaka" printsipli asosida shakllanmoqda. Bunda ishlab chiqarish bilan bevosita bog'langan o'quv dasturlar, dual ta'lim modellari, amaliyotga yo'naltirilgan yondashuvlar ustuvorlik kasb etmoqda.

Shuningdek, mehnat organlari o'z funksiyasini ko'rib chiqmoqda. Agarda avvallari ular nazorat qiluvchi idora sifatida faoliyat yuritgan bo'lsa, endi ularning asosiy vazifasi xizmat ko'rsatish, yo'l ko'rsatish, ko'maklashishdir. Bu o'zgarish fuqaroda davlat idorasiga nisbatan ishonchni kuchaytirmoqda. Ish beruvchilar uchun esa byurokratik yuk kamaymoqda: majburiy vakansiyalar berish tartibi soddalashtirilgan, bu boradagi jazolar bekor qilingan. Natijada, mehnat bozori haqida aniqroq, ochiqroq ma'lumotlar shakllanmoqda.

Zamonaviy texnologiyalar ham bu o'zgarishlardan chetda emas. Ish izlovchilar va ish beruvchilar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'lanishni ta'minlaydigan elektron platforma, hozircha Toshkentda sinov tariqasida joriy etilgan bo'lsa-da, yaqin yillarda butun respublikani qamrab olishi kutilmoqda. Bu nafaqat ish topishni, balki teng imkoniyatlarni yaratadi - yoshmi, keksami, shahardami, qishloqdami - barcha uchun sharoit teng.

Yana bir ijobiy tashabbus - "kasb vaucheri" tizimi. Bu tizim orqali ishsizlar yoki malakasini oshirishni istagan fuqarolar davlat hisobidan yangi kasb o'rganmoqda. Bu jarayon onlayn kurslar, bepul videodarslar, amaliy mashg'ulotlar orqali amalga oshmoqda, ayniqsa yoshlarga, o'rta

yoshdagi ayollarga, mehnat migratsiyasidan qaytganlarga yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda [6].

Ushbu barcha islohotlarning asosiy mohiyati shuki - odam ish topish uchun emas, ish odamni topishi kerak. Davlatning vazifasi - bu ikki tomonning yo'lini qisqartirish, to'g'ridan-to'g'ri uchrashtirish. Endi odam "qayerda ish bor?" deb yurmaydi, balki unga "sizga qanday imkoniyat kerak?" deb murojaat qilinib, jamiyatda odam qadrini yangidan anglash, mehnatni hurmat qilish, shaxsiy salohiyatni qadrlash bosqichi sanaladi.

Xulosa

O'zbekistonda aholi bandligini ta'minlash va kasbiy ta'limni isloh qilish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar - bu faqat mehnat bozorini tartibga solish emas, shuningdek, jamiyatni o'zgartirish, odamga yangi nazar bilan qarash, har bir inson ichidagi kuchni, salohiyatni ko'ra olish harakatidir. Odamga imkon berilsa, u o'z hayotini ham, atrofdagilarni ham, hatto jamiyatni ham o'zgartiradi.

Bugun ish topish masalasi - bu shunchaki iqtisodiy muammo emas, balki ijtimoiy tenglik, adolat, qadr-qimmat va o'zlikni anglash bilan bog'liq masala. Davlat shu haqiqatni anglagan holda odamga yo'l ochmoqda: yangi kasblar, zamonaviy o'quv dasturlar, erkin bandlik tizimlari, elektron platformalar, islohotlarga qaratilgan qonunchilik - bularning barchasi inson atrofida qurilmoqda. Bu holat ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan juda muhim: odam davlat uchun emas, davlat odam uchun xizmat qilayotgan tuzumga qadam qo'yilyapti.

Kasbiy ta'lim va bandlik siyosati - bu jamiyat taraqqiyotining eng sezilarli ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, ular bevosita inson hayotiga, uning ertangi kuniga ta'sir qiladi. Agar odam o'zini jamiyatda kerakli deb his qilsa, o'z salohiyatini ishga sola olsa, uning ichki ishonchi kuchayadi, jamiyatga bo'lgan mehr-izzati ortadi. Aynan shu holat ijtimoiy barqarorlikning asosiy sharti bo'lib xizmat qiladi.

Shu sababdan ham hozirgi islohotlarga faqat hukumat siyosati sifatida emas, balki butun jamiyat ishtirokidagi o'zgarishlar deb qarash kerak. Chunki ish topayotgan inson - bu faqat shaxsiy muvaffaqiyat emas, bu jamiyatning sog'lomlashayotganidan dalolat. Har bir yangi o'zlashtirilgan kasb - bu faqat yangi bilim emas, bu odamning o'z hayoti ustidan nazoratni qayta qo'lga olishi demakdir.

Yoshlarga taalluqli jihatlarni alohida tilga olish lozim. Bugungi yosh avlod - bizdan ko'ra erkinroq fikrlaydi, zamonaviy texnologiyalarni tez o'zlashtiradi, lekin ayni paytda yo'nalishga muhtoj. Ularga faqat bilim emas, balki hayotiy ma'no kerak. Kasb, mehnat va jamiyatga foyda keltirish orqali bu ma'no berilishi mumkin. Shuning uchun ham kasbiy ta'lim va bandlik siyosati - yoshlarni to'g'ri yo'lga boshlovchi kuchli mexanizmdir.

Bularning barchasi, umumiy olganda, zamonaviy O'zbekistonning jamiyat modeli shakllanayotganidan darak beradi. Bu modelda inson markazda turib, uning salohiyati, orzulari, ichki kuchi, mehnati qadrlanadi. Bu yondashuv O'zbekistonni nafaqat iqtisodiy rivojlanayotgan davlatga, balki insonni chinakam qadrlovchi jamiyatga aylantiradi.

Bundan tashqari, o'quvchilar maktabni bitirgach, kelajakdagi kasbi bo'yicha yo'nalishini aniq belgilay olishi kerak. Professional ta'lim bilan oliy ta'lim yo'nalishlari o'zaro bog'liq bo'lsa, bu o'quvchilarga o'z yo'lini adashmasdan tanlashda yordam beradi. Yana bir muhim narsa – professional ta'lim sifatini doimiy baholab borish. Bu ishda jamiyat nazorati kuchaytirilsa, tizimda ochiqlik va javobgarlik paydo bo'ladi. Hududlarda esa kasb va malaka sertifikatlari beradigan markazlar sonini oshirish lozim.

Oxirida shuni ham aytish kerakki, oliy ta'limga kirish imkoniyatlarini kengaytirish foydadan xoli bo'lmaydi. Jumladan, nodavlat oliy ta'lim muassasalariga mustaqil kvota belgilash huquqi berilsa, raqobat kuchayadi, tanlov imkoniyati esa kengayadi. Agar shu takliflar amaliyotda o'z o'rnini topsa, professional ta'limdagi ko'plab muammolar bosqichma-bosqich hal bo'ladi. Natijada esa – o'z fikriga ega, zamon bilan hamnafas, raqobatga bardoshli, mustaqil mutaxassislar yetishib chiqadi. Bunday yoshlar esa har qanday jamiyatning tayanchi, ertangi kunining eng katta umididir.

Xulosa qilib aytganda, bandlikni ta'minlash va kasbiy ta'limni isloh qilish - bu strategik yo'nalish emas, balki ma'naviy-madaniy burilishdir. Bu harakatlar odamni kuchli, mustaqil va faol qilib tarbiyalaydi. Bu esa o'z navbatida jamiyatni ichidan o'zgartiradi. Chunki har qanday rivojlanish - oxir-oqibat inson qalbidan boshlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov A. O'zbekiston mehnat bozori va kasbiy ta'lim integratsiyasi. - Toshkent: Iqtisodiyot, 2020. - 156 b.
2. Rasulov Sh. Bandlik siyosatining ijtimoiy asoslari // Ijtimoiy fanlar. - 2022. - №3. - B. 45-52.
3. Decent Work Agenda. International Labour Organization (ILO). - Geneva, 2019. - 102 p.
4. Labor Market Trends in Central Asia. World Bank Report. - Washington: World Bank, 2023. - 89 p.
5. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi. Yangi tahrir. - Toshkent: Adolat, 2023. - 210 b.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti - <https://president.uz/uz/lists/view/8342>

7. Kasbga yo'naltirish va mehnat bandligini ta'minlash bo'yicha Hukumat qarorlari. - Toshkent: Norma, 2024. - 98 b.
8. Toshmatov Z. Zamonaviy mehnat bozori: muammolar va yechimlar // Iqtisodiy tahlil. - 2021. - №2. - B. 22-30.
9. Usmonova M. Kasbiy ta'limning modernizatsiyasi: xalqaro tajriba va O'zbekiston misolida. - Toshkent: Fan, 2022. - 134 b.
10. Egamberdiyev, R. Ijtimoiy siyosat va bandlik: nazariya va amaliyot. - Buxoro: BDU, 2023. - 112 b.